

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрат о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ..... 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРҒАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г‘ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277

---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK - USLUBIJ TA'MINOTI .....	316-322



**Sharipov Dilshod Baxshilloevich,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
«Ijtimoiy fanlar» kafedrası o‘qıtuvchisi

### **JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy holatning ta’rifi, bu ijtimoiy makonda yana qanday bunday “holat”lar mavjudligi va ularning turlari, tinchlikka ularning ta’siri, J.Lokk siyosiy falsafasida jamiyatda tinchlikni ta’minlovchi ichki mexanizmlar sifatida “tabiiy holat”ni ko’rishi haqidagi batafsil sharhlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** siyosiy hokimiyat, to’liq ozodlik holati, tenglik holati, tabiiy tenglik, ozodlik holati, tabiiy holat, tabiat qonuni, huquq, chet ellik huquqi, o’zni saqlab qolish huquqi, tinchlik, absolyut monarxiya, kelajak.

**Sharipov Dilshod Bakhshilloevich**  
Bukhara State Pedagogical Institute, teacher of the  
“Social Sciences” department

### **JOHN LOCKE'S VIEWS OF NATURAL CONDITION AND PEACE**

**Abstract.** This article provides detailed comments on the definition of the state of nature, what other such "states" exist in this social space and their types, their impact on peace, J. Locke's political philosophy sees the "state of nature" as internal mechanisms that ensure peace in society.

**Key words:** political power, state of complete freedom, state of equality, natural equality, state of freedom, state of nature, law of nature, right, foreign law, right of self-preservation, peace, absolute monarchy, future.

**Шарипов Дильшод Бахшиллович,**  
Бухарский государственный педагогический институт,  
преподаватель кафедры «Общественные науки»

### **ВЗГЛЯДЫ ДЖОНА ЛОККА НА ЕСТЕСТВЕННОЕ ПОЛОЖЕНИЕ И МИР**

**Аннотация.** В данной статье даны подробные комментарии по определению естественного состояния, какие еще такие «состояния» существуют в данном социальном пространстве и их виды, их влияние на мир, политическая философия Дж. Локка рассматривает «естественное состояние» как внутренние механизмы, обеспечивающие мир в обществе.

**Ключевые слова:** политическая власть, состояние полной свободы, состояние равенства, естественное равенство, состояние свободы, естественное состояние, закон природы, право, иностранное право, право на самосохранение, мир, абсолютная монархия, будущее.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N19>

**Kirish.** Jon Lokk (1632–1704) ingliz ma’rifatparvar faylasufi, empirizm va liberalizmga, epistemologiya va siyosiy falsafaga juda katta ta’sir o’tkazgan shaxs. 1632-yil 29 avgustda

Somerset grafligi – Angliyaning shimoli-gʻarbiy qismidagi Bristol yaqinidagi Rington shaharchasida mahalliy advokat oilasida tugʻilgan. 1646-yilda Angliyada fuqarolik urushi kechayotgan paytda O.Kromvel parlament armiyasida otasi kapitan boʻlib xizmat qilayotganida (otasi) komandirining tavsiyasiga koʻra, Jon Lokk oʻz vaqtining nomdor va yetakchi maktabi – Vestministr maktabiga oʻqishga kiradi. 1652-yilda maktabning eng yaxshi oʻquvchilaridan biri sifatida Oksford universitetiga oʻqishga kiradi[1]. 1656-yilda bakalavr, 1658-yilda esa magistr darajasini oladi. Keyinchalik Shefstberi grafi boʻlgan lord Eshli taklifiga koʻra, uning oʻgʻliga uy vrachi va tarbiyachisi boʻlib ishlaydi – shu bilan siyosiy faoliyatini ham boshlaydi. **“Diniy bagʻrikenglik haqida noma”** yozadi: 1689-yilda 1-, 1692-yilda 2- va vafotidan soʻng 1706-yilda 3-nomasi anonim shaklda eʼlon qilinadi. Shefstberi grafi Eshli topshirigʻiga koʻra, Shimoliy Amerikadagi Karolina provinsiyasi Konstitusiyasi (“Fundamental Constitutions of Carolina”) va **“Rivojlanishning bosh rejasini”** ishlab chiqadi. 1668-yilda J.Lokk Qirollik jamiyati aʼzoligiga, 1669-yilda esa uning Kengashi aʼzoligiga saylanadi[2].

Aniq fanlar, meditsina, siyosat, iqtisod, pedagogika, davlatning cherkovga munosabati, diniy bagʻrikenglik va eʼtiqod erkinligi kabi yoʻnalishlar J.Lokk qiziqishlarining bosh boʻgʻini sanalgan.

1671-yilda ensiklopedist olim inson aqlining anglash qobiliyatlarini tadqiq etishga kirishadi va bu 19-yil davom etib, “Inson aqlini tushunish tajribasi” nomli bosh kitoblaridan biri paydo boʻlishiga asos boʻladi.

1672-yili va 1679-yillari Angliya hukumat idoralarida yuqori mansabdorlikni egallaydi. Lekin uning karyerasi yuqorida eslatilgan Shefstberi grafining “koʻtarilishi” yoki “tushishi” bilan bogʻliqdir. 1675-yildan 1679-yil oʻrtalarigacha J.Lokk sogʻligʻini tiklash maqsadida Fransiyada yashaydi. 1683-yilda Shefstberi grafiga izdoshlik qilib, Gollandiyaga koʻchib oʻtadi. 1688-1689-yillarda Angliyada “Shonli revolyusiya” boʻlib, Vilgelm III Oranskiy Angliya qiroli deb eʼlon qilinadi. Oqibatda 1688-yilda J.Lokk vataniga qaytadi. 1690-yillarda J.Lokk davlat ishlari bilan birga ilmiy va badiiy ijod bilan shugʻullanadi. 1690-yilda “Inson aqlini tushunish tajribasi”, “Boshqaruv haqidagi ikki asar”i, 1693-yilda “Tarbiya haqidagi fikrlar”, 1695-yilda esa “Xristianlik oqilligi” asarlari nashr etiladi. J.Lokk 1704-yil 28 oktyabrda astmadan (leydi Demeris Meshem dala hovlisida) vafot etadi.

J.Lokk Yevropadagi uygʻonish davri – “maʼrifat davri”ga va liberalizm nazariyotchilari paydo boʻlishiga katta taʼsir oʻtkazgan. AQSh mustaqillik deklaratsiyasida uning gʻoyalari aks etgan[3]. Uning gʻoyalariga D.Didro, T.Gobbs katta taʼsiri mavjud, keyinchalik Lokk gʻoyalari ahamiyatini D.Yum va I.Kant eʼtirof etgan. J.Lokk fikricha, odamlar tugʻma gʻoyalarsiz tugʻilishadi va ilm hissiy idrok asosida olingan tajriba orqali keladi[4]. J.Lokk fikricha, iroda erkinligi kuchli xohish taʼsirida boʻladi va ozodlik irodaga emas, qalbga oid kuchdir,[5] deb yozadi. J.Lokk falsafasida **hokimiyatlarning boʻlinish nazariyasi ilk marotaba asoslangan** (qonun chiqaruvchi-parlament, ijro etuvchi-sud, armiya; federativ hokimiyat-qiro, vazirlar boshqaradi). “Odamlarning jamiyatga aʼzo boʻlib kirishlarining asosiy maqsadi oʻz mulkidan tinch va xavfsiz foydalanishga urinish boʻlib, uning asosiy quroli va vositasi shu jamiyatda oʻrnatilgan qonunlar hisoblanadi”, deb yozadi Lokk[6].

Jon Lokkning “Inson aqlini tushunish tajribasi”, “Tabiat qonunlari tajribasi toʻgʻrisida”, “Din erkinligi tajribasi haqida”, “Din erkinligi haqida noma”, “Tarbiya haqidagi fikrlar”, “Jentelmen nima oʻqishi va oʻrganishi haqidagi fikrlar”, “Boshqaruv haqida ikki asar” kabi kitoblari koʻproq mashhurdir. **“Boshqaruv haqida ikki asar”**ining 1-kitobi *“Ser Robert Filmer*

va uning izdoshlarining yolg'on prinsiplari va asoslarini tadqiq va inkor etish" deb nomlangan, to'liq diniy nuqtai nazardan (siyosiy) hokimiyatni idrok etish, tasvirlash, boshqarish huquqi kabilarga bag'ishlangan.

Jon Lokkning "Boshqaruv haqidagi ikki asar"ining 2-sida quyidagi tushunchalarni boblarga ajratib, batafsil sharhlangan: 1) tabiiy holat to'g'risida; 2) urush holati to'g'risida; 3) qullik haqida; 4) mulk to'g'risida; 5) ota hokimiyati to'g'risida (Odam a.s.ni nazarda tutgan); 6) siyosiy yoki fuqarolik jamiyati to'g'risida; 7) siyosiy jamiyatlarning kelib chiqishi to'g'risida; 8) siyosiy jamiyat maqsadlari va boshqaruvi to'g'risida; 9) davlat shakllari to'g'risida; 10) boshqaruv tizimining qulashi to'g'risida kabi jami 19ta bob qarab chiqilgan.[7] Adolat nuqtai nazardan, ushbu mavzu ostida faqatgina bittasini – **tabiiy holat** to'g'risidagi nazariyasini sharhlasak, ish unumli bo'ladi, deb o'ylaymiz. Jon Lokk tabiiy holat haqida yozar ekan, bu atamani bevosita siyosiy hokimiyat tushunchasiga bog'laydi.

**Siyosiy hokimiyat ta'rifi.** "Faqat umumiy manfaat uchungina qonunlar yaratish, o'lim jazosini ko'zda tutuvchi (xususiy) mulkni boshqarish va saqlashga oid, mos ravishda, juda qattiq bo'lmagan jazo choralarini va qonunlar ijrosini ta'minlash va chetdan davlatga bosqinni bartaraf etish maqsadida jamiyat kuchlarini ishlatish huquqini, men, tushunaman", [8] deydi.

**To'liq ozodlik holati.** "Siyosiy hokimiyatni to'g'ri tushunish va uning kelib chiqish manbasini ta'riflash uchun, biz, barcha odamlar qanday holatdaligini (bilishimiz kerak), bu esa ularning faoliyatidan qat'iy nazar to'liq ozodlik holatidirki, (bu) birovlarining irodasiga bog'liq bo'lmagan va boshqa shaxsdan izn so'ramasdan, tabiat qonunlari chegarasida o'z mulki va shaxsiyatidan foydalanishni tushunamiz", deb yozadi Lokk. J.Lokkning "to'liq ozodlik holati" atamasi ta'rifida o'zgaralar irodasi va ruxsatidan xoli bo'lgan mulk va shaxsiyatni ko'ryapmiz. Mulk-ku, tushunarli, bu boyluk, huquq, imtiyoz, lekin olim shaxsiyat tushunchasini qo'yadiki, bu o'sha davr ruhi uchun insonni, deylik, qullikka tushib qolmasligiga, xuddi, hindular kabi, yoki keyinchalik I.Kant yozgan hindlar, qora tanlilar qullar o'rnida olib ketilishi kabi hodisalarga bog'lash mumkin.[9]

Bundan tashqari, yevreylarning o'zini xo'jayiniga sotganini,[8] bunda mehnatgina (mahsuli) xo'jayinga tegishli ekani, agarki bunda kelishuvga ko'ra, itoatgo'yning bir tishi sinsa, yoki bir ko'zi chiqsa (xo'jayin urasa), kelishuv bekor bo'lishini,[8] ta'kidlaydiki, shaxsiyat hurlikning, to'liq ozodlik holatining mag'zi deb qaraladi (albatta, mulk bilan birga). Mulkka ham e'tibor shunchalik ulug'ki, bu shaxsiyat darajasida qaralgan.[8]

**Tenglik holati.** Jon Lokk "to'liq ozodlik holati" bilan birga "tenglik holati" iborasini ham qo'llaydi: "*tenglik holati* – barcha hokimiyat va barcha yurisdiksiya (sud qilish hukmi) o'zaro aloqadorki, hech kim boshqasidan ko'prog'iga ega emas". Bunda quyidagicha izoh keltiriladi: "Hammaga ma'lumki, bir zot va bir turga taalluqli mavjudot tug'ilishi bilan oq farqsiz ravishda bir xil tabiiy imtiyozga ega bo'lishi va bir xil layoqatdan foydalanishi, shuningdek, o'zaro munosabatlarda har qanday bo'ysunish yoki bo'ysundirishdan xoli tarzda teng bo'lishi", [8] tushunilgan. Albatta, Yaratgan va hukmdor irodasi tomonidan birisini boshqasining ustidan "yuqori hokimiyat va hukmronlikning tabiiy huquqi" [8] sifatida qo'yilishi bundan mustasno.

**Tabiiy tenglik.** Bu yerda J.Lokk o'z davrining dahosi, "aqli Gukker"ning (Richard Gukker (1554-1600)) "Cherkov siyosatining qonunlari" asaridan ko'chirma keltirgan. Unga ko'ra, "odamlarning tengligi shunchalar ayon va shubhasizki, odamlar orasidagi o'zaro muhabbat burchini asoslaydi, qaysiki bizning bir-birimizga bo'lgan munosabatlarimiz majburiyatlarini shunga quradi va ulardan ulug' qonuniyatlar – *adolat* va *shafqat*ni keltirib

chiqaradi”.[9] R.Gukker yozadi: “Aynan shunday tabiiy xohish odamlarni shuni anglab yetishga olib keldiki, ularning kam degandagi vazifasi o‘z yaqinlarini xuddi o‘zlarini yaxshi ko‘rishdek ko‘rishlari kerak; *chunki teng bo‘lgan narsalarga yetish uchun **hamma bir xil o‘lchovga ega bo‘lishi** darkor* – shunday qilib, agar men yovuzlikni yaratsam, unda men mashaqqat-u azoblarga tayyorlanishim kerak, modomiki, men, odamlarga ko‘rsatmaganim holda ular ham menga ko‘proq muhabbat ko‘rsatishlariga asos yo‘q”. Bu o‘rinda R.Gukker hissiyotga hamma narsani bog‘laydi va odamlarning *tabiiy majburiyatlari* ularning hissiyotlari qadar ekanligini ko‘rsatadi. “Biz va bizga o‘xshaganlarning(ya‘ni insonlarning – D.B.Sharipov) munosabatlaridagi **tenglik tabiiy aql** orqali umrguzaronlik qilish uchun *ayrim qoidalar* va *ulug‘vor vazifalar(din amri)*ni yuzga keltirdiki, bu har bir insonga ma‘lumdir”.[10]

**Ozodlik holati.** Jon Lokk yuqoridagi ta‘rifni ozodlik holati ekanligiga ishonsa-da, lekin bu o‘zboshimchalik emasligini ta‘kidlaydi. “Garchi inson bu holatda o‘zining shaxsiyati va mulkini cheklanmagan ozodlik holatida boshqarsa-da, unda o‘zini yoki boshqaruvidagi *biror jonni yo‘q qilish erkinligi mavjud emas* – faqatgina yanayam manfaatli foydalanish, shunchaki saqlashdan ko‘ra, (yaxshiroq bo‘lishi – D.B.Sharipov) bundan mustasno”.[8]

**Tabiiy holat.** Jon Lokk yozadi: “*Tabiiy holat* tabiat qonuniga egaki, u orqali u boshqariladi va u har bir kishi uchun majburiydir; va *aql – shu qonun hisoblanuvchi*, barcha odamlarga o‘rgatadiki, u bilan hisoblashiladiki, *barcha insonlar teng va ozoddir*lar, qaysiki ulardan hech biri boshqasining **hayoti, sog‘lig‘i, ozodligi** va **mulkiga ziyon yetkazmasligi kerak**;<sup>[8]</sup> chunki barcha odamlar barcha narsaga qodir va cheki (haddi, chegarasi) yo‘q dono Yaratuvchi tomonidan yaratilganlar; ularning barchasi – bitta oliy hukmfarmonning xizmatchilaridir, uning farmoni va ishi uchun yuborilganlar; ular ularni yaratganning mulkidirlar va ularning mavjudligi shungacha bo‘lishi kerakki, bu ularga emas, u istaganichadir; va bir xil layoqatga ega bo‘lgan va barchaga ato etilgan birgina tabiat ustidagi egalik, biz tasavvur ham qilolmaydigan (narsa mavjud deyolmaymiz): bizning (odamlarning – D.B.Sharipov) oramizda shunday bo‘ysunish mavjud debki, qaysiki u bir-birimizni yo‘q qilish huquqini bersa, birisi boshqasidan foydalanish uchun yaratilgan, deb – xuddiki, jonzotlarning quyi zotlari biz uchun yaratilgani kabi”,<sup>[11]</sup> deb qabul qilmasligimiz kerak, deydi. Lokk fikricha, *inson o‘zini asrab qolishga majbur* va (hayotda) o‘zicha iz qoldirishga haqli emas, “shu jihatdan ham majburki – qachonki uning hayoti xavf tug‘dirmaydi – qanchalar uddalay oladiki, insoniyatning qolgan qismini saqlab qolishga” – o‘ziga bog‘liqdir. “Va inson jinoyatchiga, odil sudlovdan tashqari, uning hayotidan mahrum etmasligi, hayotiga tajovuz qilmasligi kerakki, xuddi *inson hayotini, ozodligini, sog‘lig‘ini, tana a‘zolari va o‘zgalar mulkini saqlab qolishga oid hamma narsani qilishi kerak*”.[12]

**Tinchlik va insoniyatni saqlab qolish masalasi.** Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, J.Lokk quyidagicha xulosaga o‘tadi: “Barcha odamlarni o‘zgalar huquqlariga tajovuz qilish va bir-biriga ziyon yetkazishdan ushlab turish va tabiat qonunlariga amal qilish kerakki, bu tinchlikni va butun insoniyatni saqlab qolishdir; tabiat qonunlarini bu holatda olib borish har bir insonga bog‘liqdir, qaysiki, unga ko‘ra, har bir kishi bu qonun buzuvchisini shu darajada jazolash huquqiga egaki, qanchalik bu idrok etilishiga (ham) bog‘liqdir”. Jon Lokk bunday “to‘liq tenglik holati”da *tabiiy ravishda, birovning o‘zga ustidan hech qanday ustunlik va hukm qilish huquqi mavjud emasligini*<sup>[13]</sup> va bu tabiatdagi qonundirki – tabiat qonunini (jamiyatga) tatbiq etib bo‘lmasligini, chunki bunda “har kim amalga oshira olish huquqi”ga ega bo‘lard, deb yozadi. “Shunday qilib, tabiiy holatda bir inson boshqasi ustidan qandaydir hokimiyatga ega

bo'ladi". J.Lokk bir kishining boshqasi ustidan qisman yoki to'liq hokimiyatga ega bo'lishini despotik hokimiyatni yuzaga keltirishini,[8] ta'kidlaydi. Faqatgina bitta holatda bir inson boshqasiga qonun yovuzlik qilishi mumkin – "biz buni jazoni ijro etish, deymiz".[14] "Tabiat qonunini buzuvchi shaxs (ya'ni, jinoyatchi), shu bilan ta'kidlaydiki, u **aql qoidasi** va **umumtenglik** asosida – bular odamlar faoliyati uchun, ularning xavfsizligi uchun me'yorlar Xudo tomonidan o'rnatilgan qoidalar bo'lib, balki, (jinoyatchi) boshqa qoidalar bo'yicha yashaydi; shu bilan u (jinoyatchi) insoniyatga xavfli bo'ladi; va u odamlarni zarar va **kuch ishlatishdan saqlovchi rishtalar** (aql qoidasi va umumtenglik nazarda tutilgan – D.B.Sharipov) kuchsizlanadi va uning tomonidan buziladiki, bu *inson zotiga*, **insonning tinchligi** va **xavfsizligiga** nisbatan jinoyatdir – bu tabiat qonunida nazarda tutilgan".[15] Jon Lokkning fikricha, har bir inson ana o'sha huquq asosida insoniyatni saqlab qolishga qodirki, buning yo'li "insonlar uchun zararli bo'lgan narsalarni ushlab turish yoki zarur hollarda yo'q qilishi" kerakligini va tabiat qonunini bosib o'tgan har kimga yovuzlik qilinishi mumkinligini va shuning uchun ham uni (jinoyatchini) qilgan ishi uchun afsuslanishga majbur qilish va shunday ushlab turish – uning misolida boshqalar jinoyatiga ham chek qo'yish kerak, deydi. "Shu sababga ko'ra, har bir inson jinoyatchini jazolash huquqiga va tabiat qonuni ijrochisi bo'lishga haqlidir",[16] deb yozadi Lokk.

**Chet ellik huquqi.** J.Lokk chet elliklar huquqi haqida ham to'xtaladiki, ularning jamiyat tinchligiga salbiy tomonni ko'rmaydi, aksincha, chet elliklarni bir davlatda chet ellik fuqarosi bo'lmagan holda qanday jazolash yoki o'limga hukm qilish mumkinligi haqida dahshatga tushadi. Chet ellik ustidan davlat huquqi qonun shaklidagi qonun chiqaruvchi organ irodasi sifatidagi sanksiyalar qo'llanilmasligi kerak. Chunki u chet ellik ustidan "hokimiyatga ega emas". Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomondan Angliya, Fransiya, Gollandiyada chiqarilgan qonunlar hindular ustidan qanday qilib yuritilishi mumkinki, boshqa barcha dunyo (xalqlari – D.B.Sharipov) kabi – axir, ular "hokimiyat hukmfarmonligi ostida emas",[8] deydi (bu fikrlar olimning bir muddat Fransiya va Gollandiyada istiqomat qilgan davridan xulosadir).

**Qiyosiy fikr.** Bu nemis ma'rifatparvari I.Kantning inglizlarning Ost-Indiya kompaniyasi, gollandlarning Xitoy va Yaponiyadagi o'sha davrdagi bahonalik yurishlariga o'xshash, yaqin fikrdir (buni iqtibosda keltirdik). Faqat I.Kant tinchlik tushunchasiga (jamiyatning tashqi) xalqlararo munosabat paradigmasi sifatida ko'rsa, J.Lokk tinchlik tushunchasiga jamiyat ichidagi tabiat qonunlari asosidagi "fuqarolik qonunlari"ning amalga oshirilganida ko'radi – (ichki) ijtimoiy axloq qonuniyati sifatida ko'radi. J.Lokk yozadiki, fuqarolik qonunlari shunda adolatli bo'ladiki, agarki ular tabiat qonunlariga asoslansa – "shuning asosidagina boshqarilsa va sharhlansa".[8]

**Zarar, yoki ziyonni qoplash haqida.** J.Lokk bo'yicha, jinoyat qonunning buzilishi va aqlning adolatli boshqaruvidan "ketishi"dirki,[8] inson shunchalar o'zidan ketadiki, inson (ya'ni jinoyatchi – D.B.Sharipov) inson tabiati qonuniyatlarini inkor etadi va zararli mavjudotga aylanadi – u yoki bu shaxsga yetkazilgan odatiy zararlar uchraydi va qaysidir insonga zarar yetkaziladi. Bunda kimga zarar yetkazilgan bo'lsa, u jazolash huquqiga ega, barcha boshqa kishilar(ga ham taalluqlidir), shu bilan birga (jabrlanuvchida – D.B.Sharipov) alohida huquq – ziyonni qoplash(ni talab qilish) huquqi borki, kim zarar yetkazgan bo'lsa, (ziyonni qoplash) o'shaning zimmasidadir. Va xohlagan boshqa shaxs, bu holatni adolatli hisoblasa, jabrlanuvchiga ko'mak berishi mumkinki, yetkazilgan zarar qancha bo'lsa, shuncha miqdorda nazarda tutiladi.

**O'zni saqlab qolish huquqi asosidagi qonun.** Ushbu masalada J.Lokk insonda 2ta huquq bilan yashab qolishni izohlaydi: biri, qo'rqitish va shunga o'xshash qoidabuzarliklar kabi jinoyatlarga jazo (tayinlashni talab qilish huquqi) masalasi; ikkinchisi, faqatgina jabrlanuvchi tomon ega bo'lgan zararni qoplashni talab qilish huquqi. Ingliz ma'rifatparvari J.Lokk yozadi: shunday bo'lishi mumkinki, umumiy manfaat yuzasidan sudya, umumiy jazolash huquqiga ega shaxs sifatida jinoiy faoliyatga jazo tayinlamasligi mumkin, lekin u zarar ko'rgan shaxs manfaatlarini qondirishi va ko'rilgan zararni qoplamaslikdan ozod qilolmaydi. Bunda, J.Lokning uqtirishicha, kimki zarar ko'rgan bo'lsa, faqatgina o'sha shaxs o'z nomidan zararni qoplashni talab qilish va faqatgina u zararni qoplamaslikdan ozod qilishi mumkin.[8] Aynan shu yerda o'zni asrab qolish huquqi asosidagi qonun ishga tushishi kerak: "shunga o'xshab, har bir inson (unga nisbatan)ga qarshi jinoyat sodir etilsa, jazolash vakolatiga egaki, uning qayta takrorlanmasligiga to'siq qo'yish uchun o'zida mavjud bo'lgan butun insoniyatni saqlab qolish huquqi asosida va barcha aqlga oid faoliyatni bajarish uchun ham bu kerakli huquqdir. Shunday qilib, har bir inson tabiiy holatda qotilni o'ldirish vakolatiga egaki, bu misol orqali boshqalarni shunday jinoyatdan saqlash (lozim) – qaysiki, buni (nohaq o'limni – D.B.Sharipov) hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi; ayni damda bu odamlarni (qotil) qasdidan xavfsiz qiladi; (qotil) Xudo tomonidan ato etilgan umumiy qoida va me'yorlardan butkul uzilganki, o'zi adolatsiz kuch ishlatish va bir odamni o'ldirish orqali butun insoniyatga urush e'lon qilgan bo'ladi".[8] J.Lokk fikricha, bu manzara xuddi insonlar orasida (qonxo'r) sherxon yoki yo'lbars bo'lishiday gapki – u odamlar bilan na o'zaro hayot tarziga ega va na u orqali odamlar xavfsiz (bo'ladi) – shuning uchun uni o'ldirish kerak, deydi. Bu ulug' qonunga asoslangan: "Kimki inson qonini to'ksa, uning qoni inson qo'li orqali to'kiladi",[8] deb yozadi J.Lokk.

J.Lokk doktrinasidagi kamchilik shundaki, tabiiy holatda har bir inson ijro hokimiyati vakolatlariga ega, deb ko'rsatiladi, albatta, bu tabiat qonunidan kelib chiqishi lozim. "Yomon xarakter, hissiyot, qasd yoki o'ch olish kabi holatlar insonga xos bo'lgani uchun ham o'zgalarni jazolashda "o'tlab ketish"ga olib keladi, g'alayon va tartibsizliklarni keltirib chiqaradi; shuning uchun ham, Xudo, shubhasiz, hissiyotga berilish va boshqa odamlar tomonidan kuch ishlatishni cheklovchi boshqaruvni o'rnatgan".[8] Tabiiy holatda odamlarning o'zaro ishlarida o'zlari hukm chiqaruvchi bo'lishlari, eng katta noqulaylik ekanligini J.Lokk ta'kidlaydi. "Axir, tasavvur qilish qiyin emaski, o'z birodariga shunchalik nohaqlik bilan zarar yetkazgan kimsa, o'zi uchun ham (shunday qilmish uchun) jazo tayinlashda shunchalik adolatli bo'lishiga shubha bor".[8] J.Lokk tabiiy holatning barcha kamchiliklarini o'zi ham e'tirof etib, "**fuqarolik boshqaruvi**"ni taklif etadi. Bu ibora, olimning fikricha, tabiiy holatdagi barcha noqulayliklarni bartaraf etadi va "to'g'ri keladigan vositadir". Ayni damda J.Lokk absolyut monarxiyani cheklash haqida yozadi; uning jumla kamchiliklari hukmning adolatli, to'g'ri ekanligini yoki tekshirish huquqi hech kimda mavjud emasligini keltiradi. Aksincha, bunday holatda (absolyut monarxiyadan ko'ra) tabiiy holat ustunligini ko'rsatadi: "Axir, tabiiy holatda odamlar o'zgalarning adolatsiz irodasiga bo'ysunmasliklari kerakki, bu (absolyut monarxiyadan – D.B.Sharipov) ancha yaxshiroqdir: hukm chiqaruvchi o'z ishiga yoki boshqa qaysidir ishga xato hukm chiqarsa, buning uchun u *qolgan insoniyat oldida javob beradi*".[8] Bu yerda J.Lokk "xo'sh, unda "Tabiiy holat qayerda, Qachon odamlar shunday holda bo'lishgan?", degan ko'pchilik e'tirozini keltiradi. "...Butun dunyodagi mustaqil davlatlarning barcha podshohlari va hukmdorlari tabiiy holatdadir, unda aniq-ravshanki, bu dunyodagi ko'pchilik odamlar bu holatda bo'lishmasa, tabiiy holat hech qachon tarixda va kelajakda bo'lmagan bo'lardi. Men, mustaqil jamiyatlar

podshohlari, boshqalar bilan ittifoqchilikdami yoki yo‘q, qat‘iy nazar, shunday holatda ular, dedim. Masala shundaki, odamlar o‘rtasidagi har qanday kelishuv tabiiy holatga yakun yasamaydi, lekin qachonki odamlar yagona hamjamiyatga kirib va bitta siyosiy tana hosil qilsa (bundan mustasno); odamlar bir-birlariga majburiyat yuklashlari va boshqa kelishuvlarni imzolashlari mumkin, lekin shu bilan tabiiy holatda bo‘lib qolaveradilar. (Mahsulot) ayirboshlash bilan bog‘liq va‘dalar va kelishuvlar, ikki kishi o‘rtasida sodir bo‘lsa, bu Garsilaso de la Veganing “Peru tarixi” asarida odam yashamaydigan orolda bo‘lsa hamki, yoki Amerika o‘rmonlarida shveysariyalik va hindu o‘rtasida bo‘lsa hamki – ular uchun bu majburiy – ular bir-biriga nisbatan tabiiy holatdadir; chunki haqqo‘ylik va va‘daning ustidan chiqish insonlarga aynan insondek xoski, jamiyat a‘zosi sifatida emas”. [8] J.Lokkning xulosasiga ko‘ra, insonlar tabiiy holatda bo‘lishgan, bo‘lishadiki, shunday vaziyatga qadarki, modomiki, ular o‘z xohishlariga ko‘ra, biror-bir siyosiy jamiyat a‘zosi bo‘lishmasa, deb.

Yana bir muhim xulosalardan biri shuki, J.Lokk “ateizm davlat asoslarini yemiruvchi dunyoqarash”, [8] deb ta‘rif beradiki, din va falsafa, din va davlat munosabatlarini diniy tuyg‘ular erkinligiga urg‘u beradi.

*Jon Lokk falsafasida tinchlik tushunchasi jamiyatning ichki axloqiy qonuniyati sifatida ko‘rilgan.* Aytish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar va metodologik nuqtai nazardan ham dastlabki bixeveristik konsepsiya shudir, yoxud jumla bixeverizm maktabi shu yerdan kelib chiqqan. Paradigma mohiyati shundaki, har qanday ijtimoiy bo‘lgan narsa, vaqti yetib, siyosiy hodisa bo‘lishi mumkin. Har qanday siyosiy hodisa esa har doim ijtimoiy (hodisa)dir.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, insoniyat tarixidagi barcha, deyarli barcha ichki tartibsizliklar, yoki siyosiy inqirozlar ijtimoiy axloq normalaridagi adolat qonuniyatini suiste‘mol qilinganda yuzaga kelgan. Demakki, jamiyatda adolatni qaror toptirish – tinchlikni ta‘minlashning eng oddiy va ayni damda, eng murakkab usuli hamdir. Bunda ingliz ma‘rifatparvar olimi, faylasuf va pedagog J.Lokk asarlari nazariy jihatdan ko‘makchi bo‘la oladi, deb hisoblaymiz.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Litvinova Ye. F. *Djon Lokk, yego jizn i filosofskaya deyatel'nost* — SPb., 1892. — 77 s.
2. Locke; John (1632 - 1704) // London qirollik jamiyati sayti/Sayt Londonskogo korolevskogo obshchestva (angl.).
3. *Glausser W.* Three Approaches to Locke and the Slave Trade // Journal of the History of Ideas. — 1990. — Apr. - Jun. (t. 51, № 2). — S. 199—216.
4. *Zaichenko G. A.* Obyektivnost chuvstvennogo znaniya: Lokk, Berkli i problema «vtorichnykh» kachestv // Filosofskiy nauki. — 1985. — № 4. — S. 98-109.
5. Lokk, Djon — Vikipediya (wikipedia.org).
6. Politologiya: kratkiy ensiklopedicheskiy slovar. Rostov-na-Donu. «Feniks». Moskva. «Zevs». 1997. S.250-253.
7. *Ayers M.* Locke. — London, 1993. — 700 s.
8. DJON LOKK. Sochineniya v trex tomax. Tom 3. «Mysl». Moskva. 1988. Kniga vtoraya. Glava I. s. 263.
9. IMMANUEL KANTNING TINCHLIK MAKSIMALARI. Sharipov Dilshod Baxshilloevich, Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi. *Scientific Bulletin of NamSU-Nauchnyy vestnik NamGU-NamDU ilmiy axborotnomasi-2023--yil\_4-*

- son. 177-bet* Glausser W. Three Approaches to Locke and the Slave Trade // Journal of the History of Ideas. — 1990. — Apr. - Jun. (t. 51, № 2). — S. 199—216.
10. Richard Hooker. The Laws of Ecclesiastical Polity. B.I.Chapter.VIII.7.
11. *Boeker R.* Locke on Persons and Personal Identity. — Oxford, 2021. — 303 s.
12. *Yakovlev A. A.* Zaveshaniye Djona Lokka, priverjensa mira, filosofa i anglichanina. — M.: Izd-vo in-ta Gaydara, 2013. — 432 s. — [ISBN 978-5-93255-357-2](https://doi.org/10.1007/978-5-93255-357-2)
13. *Boeker R.* Locke on Persons and Personal Identity. — Oxford, 2021. — 303 s.
14. O'sha joyda.
15. O'sha joyda.
16. *Stuart M.* Locke's Metaphysics. — Oxford, 2013. — 522 s.



# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).